

OLTIARIQ TUMANINING DEMOGRAFIYASI, MEHNAT BOZORI VA TASHQI
IQTISODIY FAOLIYATI

Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li

Andijon davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi

Andijon davlat Pedagogika instituti talabasi

Anatatsiya: *Ushbu maqolada Oltiariq tumanining demografiyasi, mehnat bozorlari va albatta tashqi iqtisodiy a'lloqalari ya'ni import va eksport ma'lumotlari keng yoritilgan. Shu bilan birga tug'ulish va o'lim darajalari, nikoh va ajralishlar, tabiiy o'sish, migratsiya va ish haqqi kabi ma'lumotlarga ham to'xtolib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Demografiya, inson, o'zbeklar, tug'ulish, nikoh, o'lim darajasi, ajralish, tabiiy o'sish, migratsiya, ish haqqi, eksport, import.*

**ДЕМОГРАФИЯ, РЫНОК ТРУДА И ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКАЯ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АЛТЫАРЫКСКОГО РАЙОНА**

Аннотация: *В данной статье широко освещены демография, рынки труда и, конечно же, внешнеэкономические связи, т.е. данные об импорте и экспорте Алтыарыгского района. В то же время обсуждались такие данные, как рождаемость и смертность, браки и разводы, естественный прирост, миграция и заработка плата.*

Ключевые слова: *Демография, народ, узбеки, рождаемость, брак, смертность, развод, естественный прирост, миграция, заработка плата, экспорт, импорт.*

**DEMOGRAPHY, LABOR MARKET AND FOREIGN ECONOMIC ACTIVITIES OF
ALTYARYK DISTRICT**

Annotation: *This article widely covers demography, labor markets and, of course, foreign economic relations, i.e. data on imports and exports of Altyarygsky district. At the same time, such data as birth and death rates, marriages and divorces, natural increase, migration and wages were discussed.*

Key words: *Demography, people, Uzbeks, birth rate, marriage, mortality, divorce, natural increase, migration, wages, export, import.*

KIRISH

Oltiariq tumanining aholisi, asosan, o'zbeklar (93,5%), shuningdek, tojik (qirg'iz (1,9%), rus, koreys, arman, yapon, xitoy, nemis, chuvash, qozoq, ozarbayjon, ukrain va boshqa millat vakillari (1,1%) ham yashaydi. 1 km² ga o'rtacha 263 kishi

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-9 (30- September)

to'g'ri keladi. Shahar aholisi 22 ming 500 kishi (14%), qishloq aholisi 143 ming 500 kishi (86%; 2003)[4].

Asosiy qism: Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar singari O'zbekiston Respublikasining ham aholisi nisbatan «yosh» bo'lib, uning katta qismi mehnatga layoqatli yoshdadir. Aholi umumiy miqdorining 39 % ini mehnatga layoqatli davrgacha bo'lgan yoshlar, 54 % i mehnatga layoqatli va 7 % mehnatga layoqatli davrdan katta yoshlilar tashkil etadi[6].

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Oltiariq tumanida 2022 - yilning 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni 222 336 kishini tashkil qildi va yil boshidan 3 257 kishiga yoki 1,5 % ga ko'paydi. Shuningdek, 2022- yilning 1- oktabr holatiga Oltiariq tumanida 108,8 ming kishi ayollar va 113,5 ming kishini erkaklar tashkil etgan.

Tug'ilish darajasi. Oltiariq tumani 2022 - yilning yanvar - sentabr oylarida tug'ilganlar soni 4 225 kishini tashkil etdi va 2021- yilning shu davriga (4 423 kishi) nisbatan 198 kishiga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 25,6 promilleni tashkil qildi (2021-yilning shu davrida 27,4 promille).

O'lim darajasi. Oltiariq tumani 2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida o'lganlar soni 735 kishini tashkil etdi va 2021 - yilning shu davriga (726 kishi) nisbatan 9 kishiga ko'paygan. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil qildi. (2021-yilning shu davrida 4,5 promille).

Tabiiy o'sish. Oltiariq tumani 2022 - yilning yanvar - sentabr holatiga tabiiy o'sish 3 490 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davri (3 697 kishi) ga nisbatan 207 kishiga kamayganini kuzatishimiz mumkin.


Nikohlar va ajralishlar. Oltiariq tumani 2022 - yilning yanvar - sentabr oylarida FHDYO organlarida 1171 ta nikohlar va 181 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Mingta aholiga nisbatan 7,1 nikoh (2021- yilning tegishli davrida 7,9) va ajralishlar 1,1 (2021 - yilning tegishli davrida 1,0) to'g'ri keladi.

1-jadval

2022- yil yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati

	Kishi			Har 1000 aholiga, nisbatan	
	2021-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	o'sish, kamayish	2021-yil yanvar- sentabr	2022-yil yanvar- sentabr
Tug'ilganlar	4 423	4 225	-198	27,4	25,6
O'lganlar	726	735	9	4,5	4,5
Tabiiy o'sish	3 697	3 490	-189	22,9	21,1
Nikohlar	1 283	1 171	-112	7,9	7,1
Ajralishlar	166	181	15	1,0	1,1

1-rasm.



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 - yilning yanvar - sentabr oylarida Oltiariq tumani bo'yicha ko'chib kelganlar soni 103 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 336 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 233 kishiga (2021 - yilning shu davrida minus 171 kishi) teng bo'ldi. Bandlikka ko'maklashuvchi markazga murojaat qilgan fuqarolardan 2 735 nafari (barcha murojat etganlarning 61,0 % i) ishga joylashtirildi. O'tgan davr mobaynida bandlikka ko'maklashuvchi markazda ro'yxatga olingan fuqarolardan 21 nafari ishsizlik maqomini olgan[5].

2-rasm

**2022-yil yanvar-sentabr oylarida mehnat resurslar balansi
(Oltiariq tuman statistika bo'limi)**

N/ o	Hudud nomi	Aholi soni	Mehnat resursla ri	Bandla r	Iqtisodiyotnin g norasmiy sektorida bandlar	Chetga ishlagan ketgan shaxslar	Ishga joylashishg a muhtoj shaxslar	Ishsizlik darajasi	Iqtisodi y nofaol aholi
1	Yozoyvon	115 641	60 446	45 096	22 518	6 589	4 591	9,2	10 759
2	Quva	267 706	138 522	101 913	53 875	12 806	9 990	8,9	26 618
3	Oltiariq	220 708	118 441	87 618	42 648	10 281	8 510	8,9	22 314

O'rtacha oylik ish haqi. 2022-yil yanvar - sentabr oylarida Farg'ona viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqi 2 783,8 ming so'mni, Oltiariq tumanida esa 1 946,3 ming so'mni tashkil etdi. Bunda ish haqqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud. Oltiariq tumanining 2022 - yil yanvar - sentabr oylari davomida tashqi savdo aylanmasi 102,4

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-9 (30- September)

mln AQSh. dollarini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga (83,9 mln AQSh. doll) nisbatan 18,5 mln AQSh.dollarga ko'paygan[2].

Eksport hajmi. Oltiariq tumani bo'yicha 2022-yil yanvar - sentabr oylari davomida 62 ta korxona tomonidan (o'tgan yilning mos davrida 57 ta korxona) jami 78 624,8 ming AQSh. dollari qiymatidagi mahsulotlar (tovar, xizmatlar) xorijiy davlatlarga eksport qilingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga (65 731,0 ming AQSh. dollari) nisbatan 119,6 % ni tashkil etgan. Eksport hajmining 2 352,3 ming AQSh. dollari (3,0 % i) sanoat mahsulotlari, 74 903,9 ming AQSh. dollari (95,3 % i) oziq - ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, 105,1 ming AQSh. dollari (0,1 % i) nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, 1 240,8 ming AQSh. dollari (1,6 % i) boshqa turdag'i mahsulotlar xissasiga to'g'ri keladi.

Import hajmi. Oltiariq tumani bo'yicha 2022-yil yanvar - sentabr oylari davomida 114 ta korxona tomonidan (o'tgan yilning mos davrida 71 ta korxona) jami 23 774,8 ming AQSh. dollari qiymatidagi mahsulotlar (tovar, xizmatlar) xorijiy davlatlardan import qilingan bo'lib, import hajmi o'tgan yilning mos davrida (18 140,9 ming AQSh. dollari) nisbatan 131,0 % ni tashkil etgan.

Hisobot davrida xorijiy davlatlardan import qilingan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) ning 14 756,0 ming AQSh. dollari yoki 62,1 % i mashina va transport asbob - uskunalarini hisobiga, 1 005,6 ming AQSh. dollari yoki 4,2 % i sanoat tovarlari hisobiga, 770,1 ming AQSh. dollari yoki 3,2 % i kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hisobiga, 1249,4 ming AQSh. dollari yoki 5,3 % i nooziq - ovqat xomashyo hisobiga, 48,2 ming AQSh. dollari yoki 0,2 % i mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar hisobiga hamda 5 781,8 ming AQSh. dollari yoki 24,3 % i oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hisobiga, 163,6 ming AQSh. dollari yoki 0,7 % i boshqa mahsulotlar hisobiga to'g'ri keldi[3].

3-jadval

2022-yil yanvar-sentabr oylarida import hajmi

2022-yil yanvar-sentabr oylarida import hajmi

Asosiy import tarmog'lar	Import hajmi	Jami importdagi ulushi
Mashina va transport asbob – uskunalarini	14756,0 ming AQSh. dollari	62,1 %
Sanoat tovarlari	1 005,6 ming AQSh. dollari	4,2 %
Oziq - ovqat mahsulotlar va tirik hayvonlar	5781,8 ming AQSh. dollari	24,3 %
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	770,1 ming AQSh. Dollari	3,2 %

Xulosa qilib shuni aytishim mumkunki aholi soni ortgan sari ishga bo'lgan talab ham, ishsizlar soni ham ortib boradi. Shu bilan aholining yashash sharoiti ham salbiy tomonga o'zgara boshlaydi. Bunday hollarni bartaraf etish uchun eng avval aholini ishchi kasblar bo'yicha kadr sifatida tayyorlash lozim. Faqtgina ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash emas, o'quv jarayonlarini amaliyat bilan bog'lagan holda tashkil

etish, ishsiz aholi, jumladan yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ham ayni muddao hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ishsiz aholi va ish qidirayotgan shaxslar kasb hunarga o'qitilsa aholining o'z - o'zini band qilish qobiliyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oltiariq tumani Mehnat resurslari balansi 2022-yil yanvar-sentabr balansi
2. Oltiariq tumanining statistik axborotnomasi. 2022-yil yanvar-setabr.
3. Tojiyeva Z. Iqtisodiy va demografik statistika. O'quv qo'llanma. -T., 2002.
4. Z.N. Tojiyeva , F.A. Do'smonov. „Demografiya" Toshkent- 2020.
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. © 2008-2023 «Gazeta.uz»